

Kurbanova Mohinur Xabib qizi

Buxoro Davlat Universiteti, Turizm va mehmonxona
 xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi
mohinur.kurbanova@mail.ru
 ORCID: 0000-0002-2292-7937

ZIYORAT TURIZM: ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ziyorat tushunchasi, uning turizmdan farqli jihati, islomiy ziyorat turizmining asosiy xususiyatlari, shuningdek, musulmon ziyorat turizmini rivojlantirishda ilmiy yondashuvlarni tahlil qilinib, uni motiv, maqsad, imon, muqaddas makon kabi asosiy omillar orqali ta'riflash va O'zbekiston sharoitida ziyorat turizmini rivojlantirishning klaster va marketing yondashuvlarini tadbiq etish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ziyorat, ziyoratchi, turist, ziyorat turizm, ziyoratgoh, muqaddas maskan

Kirish

Bugungi kunda ziyorat turizmi butun dunyo bo'ylab rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, Islom diniga mansub bo'lgan mamlakatlarda Haj va Umra ziyoratlari, turizmning muhim yo'nalishlariga kiradi. Shuningdek, Xristianlik va boshqa diniy yo'nalishlar doirasida ham ziyorat turizmi o'zining ahamiyatini saqlab kelmoqda.

XXI asrdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, jumladan, ommaviy turizm va transportning rivojlanishi, globallashuv, shuningdek, ziyorat va turizm o'rtasidagi chegaralarning ko'p jihatdan noaniqligi ziyoratgohlarga ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda ziyorat markazlari ko'pincha rivojlangan va ko'p funksiyali bo'lib, turli motivlarga ega tashrif buyuruvchilar, jumladan, ziyoratchilar, diniy sayyohlar, tadqiqotchilar va dam olish maqsadida safar uyushtiradiganlar uchun qo'shimcha madaniy va turistik qulayliklarni taklif qiladi.

Ziyorat tushunchasi, uning turizmdan farqli jihati, musulmon ziyorat turizmining asosiy xususiyatlari, shuningdek, musulmon ziyorat turizmini rivojlantirishda ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish maqolaning asosiy maqsadi sanaladi. Ziyorat turizmining ilmiy nuqtai nazardan tahlili nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar orqali uni yanada takomillashtirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish imkoniyatlari aniqlangan.


Mastercard-CrescentRating Global Musulmon Sayyohlik Indeksi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyoda musulmon sayohatchilar soni 145 millionga yetgan, 2024-yildan 2028-yilgacha bo'lgan prognoz davrida musulmonlarning xalqaro tashriflari 3-5% o'sish ko'rsatkichi bilan ularning soni 230 millionga yetishi, sohadan olinadigan daromad esa 225 milliard AQSH dollarini tashkil etishi kutilib, hududlarda ziyorat turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1-jadval

GMTI 2024 - mamlakatlarning jahon musulmon sayyohlik bozoridagi reytingi
 GMTI 2024 dagi o'rni Destinatsiya GMTI 2024 da to'plangan ball 2023-yilga nisbatan o'zgarish

| | | | |
|-----------|-----------------------------|-----------|-----------|
| 1 | Indoneziya | 76 | +3 |
| 1 | Malayziya | 76 | +3 |
| 3 | Saudiya Arabistoni | 74 | +2 |
| 4 | Turkiya | 73 | +3 |
| 5 | Birlashgan Arab Amirliklari | 72 | +1 |
| ... | | | |
| 14 | O'zbekiston | 64 | +1 |

Saudiya Arabistoni, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari keyingi o‘rinlarda turadi. O‘zbekiston esa bu ro‘yxatda 14-o‘rinni egalladi. Islom Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo bo‘lmagan mamlakatlar ichida esa Singapur, Birlashgan Qirollik, Tayvan, Gonkong va Tailand top 5 talikdan o‘rin olgan.



1-rasm. Butunjahon musulmon sayyohlarning mintaqalar bo‘yicha tashriflar ulushi

Xalqaro Halol turizmni baholash tashkiloti - Mastercard-CrescentRating ma‘lumotlariga ko‘ra, musulmon sayyohlar tashrifi bo‘yicha Osiyo yetakchi o‘rinda turadi. 2024-yilda Islom Hamkorlik tashkilotiga a‘zo mamlakatlar orasida musulmonlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Indoneziya va Malayziya davlatlari bir necha yillardan beri birinchilikni egallab kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Diniy sayohat ibtidosi odamlar imon va e‘tiqod masalasi tufayli sayohatlarini boshlaganlariga borib taqaladi. Bu “ziyosat” bilan bog‘lanib, bu yerda “ziyoratchi - diniy motivatsiyaga ega turist yoki sayohatchi” deb ataladi. Diniy turizm ko‘pincha turli yozuvchilar tomonidan madaniy meros turizmi, madaniy turizm va ma‘naviy turizm deb ta‘riflanadi.

“Pilgrimage” va “паломничество” atamaları barcha din vakillari uchun bir xil ma‘noda qo‘llanilib, “ruhiy xotirjamlikka erishish uchun qilinadigan harakat”ning ingliz va rus tillaridagi talqinidir. Diniy turizm va ziyosatga oid tadqiqotlar asosan sotsiologlar va antropologlar tomonidan ishlab chiqilgan 1970-1990-yillarda ilmiy adabiyotga kiritilgan tushuncha va nazariyalarga asoslanadi va turizmning turli turlari, jumladan, ziyosat bilan bog‘liq bo‘lgan “ziyoratchilar tajribasi” va psix-ijtimoiy dinamikani o‘rganishga e‘tibor qaratadilar.

Ziyosat termini 1990-yillarga qadar nazariy jihatdan asoslanmagan. Ziyosat atamasi konfessiyalararo (nomusulmonlar uchun ham) ishlatiladigan atamadir, ya‘ni, dunyodagi barcha din vakillari ziyosat qilishadi, lekin ularning har qaysi o‘z tilida ziyosatni turlicha talqin qiladi.

XX asr oxirida ziyosat jarayonini ijtimoiy yondashuv asosida o‘rganishda “marosim jarayoni” [27], dunyoning markazi sifatida muqaddas joy [12], “haqiqat”ni izlashda turizm (zamonaviy insonning ziyosatini ifodalaydi) [15], “muqaddas sayohat” [13] kabi g‘oyalar shakllangan.

Angliyalik antropolog Viktor va Edit Turnerlarning 1970-yillarda katolik dinida ziyosat qilish ustida olib borgan tadqiqotlari ko‘pchilik olimlarni ilhomlantirdi. Viktor Turnerning so‘zlariga ko‘ra, ziyosat - bu dunyodan tashqarida “markazga” sayohat qilish sanaladi [3].

“Pilgrimage” (ziyosat) atamasining ildizi semantik jihatdan yevro-xristian o‘tmishiga borib taqaladi [23]. 1990-2000-yillarda ziyosat jarayonini tadqiq qilishda “ziyoratchi-turist” klassifikatsiyasi shakllantirildi [10], rasmiy va mashhur ziyosat turizm destinatsiyalari farqlandi [9], ziyosat va turizm o‘rtasidagi murakkab munosabatlar [11], turist va ziyoratchi o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar [5] asoslandi.

2010-yillardan boshlab “ziyosat” tushunchasiga ilmiy ta‘rif sifatida an‘anaviy diniy va dunyoviy sayohatlar kiritila boshlandi, endi tadqiqotchilar ziyosatning zamonaviy g‘oyalarini

diniy motivlar va faoliyatlar doirasida emas, balki dunyoviy amaliyotlar kontekstida muhokama qila boshladilar. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tobora ko'proq sayyohlar turli xil tajribalarni, jumladan, yangi bilimlarni, ruhiy va jismoniy his-tuyg'ularni va hissiy kashfiyotlarni qidirmoqdalar. Olimlar dunyoviy ziyoratgohlar va ziyoratshunoslikning dunyoviy jihatlarini haqida yangi bilimlarni to'plashdi.

Tilshunoslarning fikricha, "паломничество" ("ziyosat") palma daraxtining shoxlari so'zidan kelib chiqib, "Rabbiyning Quddusga kirishi" bayramida Muqaddas Zaminga tashrif buyurgan birinchi nasroniy ziyoratchilar tomonidan olib kelingan. XV asrda Yevropadan kelgan ziyoratchilar uchun Rona qirg'og'idan Iordaniya daryosigacha bo'lgan maxsus marshrutlar yoki "yo'lakchalar" ishlab chiqilgan. Biroq, ziyoratchilar uchun birinchi yo'lko'rsatkichlar yoki "belgilar" VIII asrda Vizantiyada tayyorlangan. Salib yurishlari tufayli Muqaddas yerga ziyorat qilish an'anaga aylangan.

Xristianlar uchun *ziyosat* (паломничество) - ibodat qilish, mehnat qilish va monastir yoki ma'badni tiklash va rivojlantirish uchun xayr-ehson ulashish maqsadida diniy ziyoratgohlarga tashrif buyurish. Ruslarda bu ibodat deb atalgan bo'lsa, ziyorat deganda esa Rossiya-Falastin jamiyati tomonidan uyushtirilgan Muqaddas Zaminga, Muqaddas Qabrga sajda qilish uchun uyushtirilgan sayohatlar tushunilgan.

Turli xalq va dinlar orasida ham diniy safarlar farqlanadi. Misol uchun, musulmonlarda - Haj, Umra, ziyara; xristian dinida - katta ziyorat, kichik ziyorat, cherkov ziyorati; induizm va buddizmda - parikrama, pradakshina, kora.

Arab madaniyatida haj, umra (kichik ziyorat), ziyara (avliyolarning qabrlarini ziyorat qilish), hijra (Alloh yo'lida hijrat qilish), safar (sayohat), rixla (ilm izlab, tijorat, sog'liqni tiklash maqsadida sayohat qilish), hidaya (hidoyat, to'g'ri yo'lga olib borish), tariqa (yo'l), haq (ruhiy yuksalish usuli va Haqni tasavvufiy bilish) kabi sayohat qilish bilan bog'liq atama va tushunchalar bir qancha.

Eron va janubiy Osiyolik musulmonlar *ziyara*, *ziyarat* so'zlarini Haj safari, shuningdek, muqaddas joylarni, jumladan, payg'ambarlarning va ularning ahli oilasi, imomlar, sahobai ikromlar qabrlarini ziyorat qilishni ifodalashda ham ishlatishadi. Indoneziyaliklarda *ziarah* faqat muqaddas joylar va qabrlarni ziyorat qilish ma'nosida foydalaniladi. Olimlar ziyoratning ijtimoiy, diniy va madaniy jihatlarini o'rganib, turli ta'riflar berdilar.

Haj, qabrlarni, ziyoratgohlarni va cherkovlarni ziyorat qilish kabi jismoniy ko'rinishdagi ziyoratlardan tashqari bir-biridan ma'lum xususiyatlari bilan farqlanadigan virtual va kiber ziyoratlar ham mavjud. Ular kompyuter, Internet va mobil qurilmalar kabi texnologiyalar bilan bog'liq sayohatlar bo'lib, virtual ziyoratlar odatda din, diniy urf-odatlar, ziyoratgoh haqida video formatda ma'lumot bersa, kiber ziyoratda esa 3 o'lchamli grafikda tayyorlangan rasm va videolar orqali ziyorat qilishni bosqichma-bosqich online tarzda amalga oshirish mumkin. Bularga Second Life tomonidan yaratilgan Cyber Hajj dasturi, Islamonline.net veb-saytini misol keltirish mumkin. Bunday dasturlarni yaratishdan asosiy maqsad musulmon va nomusulmonlarga Islomni tanitish, ziyorat amallarini bosqichma-bosqich ko'rsatish va o'rgatishdir.

Turizm va ziyorat orasidagi farq odatda mavhum bo'lib kelgan. Britaniyalik mashhur antropolog Victor va Edith Turnerlar bir necha yillik tadqiqotlari davomida turizm va ziyoratning farqini aniqlash jarayonida "*turist yarim ziyoratchi, agar ziyoratchi yarim turist bo'lsa*" degan xulosani tasdiqlashgan [27]. Biroq, hanuzgacha bu ikki atamaning farqi aniq dalillarda keltirilmagan.

Ayrimlar olimlar ziyorat bu turizmning bir turi deb hisoblasa, boshqalari turizm ziyoratning bir turi ekanligini ta'kidlaydi. Boshqa olimlar bu ikki tushuncha umuman qarama-qarshi ma'noni anglatadi desa, ba'zilar esa so'zlar o'rtasida umuman farq yo'qligini ta'kidlaydilar. Umumiy qilib aytganda, asosiy qism olimlar "*ziyosat diniy baxsh qilish (qurbonlik)ga aloqador sabablarga ko'ra amalga oshiriladi*", degan farazni ilgari surmoqda.

O'zbek tilining izohli lug'atida ziyoratga "*tashrif, tabarruk joylarga safar qilish*" deb ta'rif berilgan [22]. Camponing "Islom ensiklopediyasida" musulmon mamlakatlaridagi diniy safarni "ziyosat" deb atagan, bu arab tilida "tashrif" va "tashrif buyurish" degan ma'noni anglatadi.

Ziyorat atamasi odatda boshqa musulmon ziyoratgohlariga ixtiyoriy ravishda ziyoratga borish mazmunida qo'llaniladi.

Z.B. Navruz-zoda ziyoratni tashqi va ichki safarga ajratib, uning botiniy va zohiriy jabhalarini tasniflagan. Tashqi safar o'z navbatida ichki safarni amalga oshirishga ko'maklashadi. Ichki sayohat jarayonida inson yomon xulqdan xushfelliikka qarab harakatlansa, inson nopoklik holatidan poklik darajasiga ko'tariladi, qalb tozalanib, ruhiy xotirjamlikka erishiladi.

Diniy yo'nalishdagi ma'rifiy sayohatlar, ziyorat sayohatlaridan farqli o'laroq, qisqaroq, diniy bayramlarga mo'ljallanmagan va ularda barcha yoshdagi aholi qatlami qatnashish imkoniga ega. Sayyohlar ekskursiya dasturining bir qismi sifatida diniy joylarga tashrif buyurishi mumkin, ammo ziyoratchilar uchun ekskursiya ikkinchi darajali sayohat sanaladi. Ziyorat obyektlari esa ziyoratgoh sifatida talqin etilib, "ziyosat" so'zi - muayyan din vakillarining zohiriy va botiniy poklanishini bildirsa, uning oxiriga "goh" - "tashrif joyi" suffiksining qo'shilishi natijasida "ziyosatgoh" - "muayyan din vakillari zohiriy va botiniy poklanadigan muqaddas joy (hudud)" degan ma'noni anglatadi. *Ziyorat markazi bo'lgan turistik obyektlar* - cherkovlar, masjidlar, maqom, diniy muzeylar, urush maydonlari, tog'lar, g'orlar va ma'naviyat markazlariga talab ortib, zamonaviy turizm industriyasining bir qismiga aylanib bormoqda.

O'zbek tilining izohli lug'atida ziyoratgoh *muqaddas joy* so'zi bilan hamohang ravishda qo'llanilib, dindorlar tasavvurida ilohiyot bilan bog'liq bo'lgan aziz, tabarruk joy degan ma'noni anglatadi.

Forsiyzabon millat vakillari bunday muqaddas joylarni diniy ahamiyati, o'lchamiga ko'ra *Ziyoratgoh, Imomzoda* (Shia imomlari ziyoratgohlari), Turkiya, Janubiy va Markaziy Osiyoliklar esa - *Dargoh* (So'fi avliyolarning qabrlari), Janubi sharqiy Osiyoda - *Ziarat*, Janubiy Osiyoda - *Ziyoratxona*, Xitoyda - *Gongbei*, ba'zi hududlarda esa *Mozor, Maqom* nomlari bilan ataladi.

Islom ensiklopediyasida maqbara oldida ziyoratchilar uchun mo'ljallab qurilgan maxsus xona - ziyoratxona, dindorlar muqaddas deb hisoblaydigan joylar esa muqaddas joylar, qadamjolar deb ta'rif berilgan. Bular - payg'ambar, shayx, eshon, avliyolar nomi bilan bog'liq hisoblangan va ziyoratgohga aylanib ketgan shahar, maqbara, chashma, daraxt, tepalik, g'or va boshqalardir. Bunga Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Zangiota, Axmad Yassaviy dafn etilgan joylar va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Islomda Makka va Madina, shialarda, Karbalo va Najaf shaharlari umumiy muqaddas joylar hisoblanadi va ziyorat qilinadi.

Markaziy Osiyoda "muqaddas qadamjolar" ziyorat obyektlarining eng keng tarqalgan turi ekanligini, so'fiylik ta'limoti haqidagi fikr-mulohazalar o'zbek Islomshunos olimi B.M. Bobojonov izlanishlarida, Buxoro viloyatining tabarruk qadamjolari va avliyolari tarixi to'g'risida S.S. Buxoriy, N.Yo'ldoshev, O.A. Suxarevaning asarlarida, tasavvuf ilmi namoyondalari va ziyoratgohlari xususidagi ma'lumotlarni G.Navro'zova, K.Rahimovlarning, Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi xususida S.Jo'rayeva ilmiy ish olib borganlar. D.M. Abramson va E.E. Karimovlar esa Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ziyoratning ahamiyati, turli davrlarda unga bo'lgan munosabatni tahlil qiladilar. Diniy turizmni destinatsion menejment va marketing g'oyalarini qo'llash, ziyorat turizm klasterlarini shakllantirish bo'yicha B.N. Navruz-zoda, N.S. Ibragimov, Z.B. Navruz-zoda, A.A. Xudoyarov, ziyorat turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish xususida T.G. Ravshanovlar fanda ilmiy yangiliklar kiritganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ziyorat turizmining ilmiy yondashuvlari tahlil qilinib, ilmiy tadqiqotlar bilan bog'liq metodologiyalar o'rganilgan. Ilmiy izlanishlar jarayonida analiz va sintez, guruhlash, adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv kabi usul va uslublardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Din va ziyorat tushunchalari turizmdan oldin paydo bo'lgan bo'lsada, turistik yondashuv nuqtai nazaridan turizm yaxlit bir hodisa va ko'p tarmoqli ekanligini inobatga olib, diniy sayohat va ziyorat turizmning subtizimi deb qarash maqsadga muvofiq. Muqaddaslik va dunyoviylik xususiyatlari esa diniy turizmning subtizimlari sanaladi.

Islomiy diniy va ziyorat turizmiga insonlarning dini, e'tiqodi, motivatsiyasi, zamon va makon jabhalarini inobatga olib, *Halol turizm, Musulmonlar uchun do'stona turizm,*

Islomiy/Shariat turizmi, E'tiqod turizmi, as-Siyahah, al-Rihla kabi bir qancha atamalar fanga kiritilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Islomiy ziyorat turizmi bilan uzviy bog‘liq va hamohang ravishda qo‘llaniladigan atamalarning o‘xshashlik va tafovutlari

| Turistik-islomiy ibora | Halol turizm | Musulmonlarga do‘stona turizm | Islomiy turizm/Shariat turizmi | Qorong‘u turizm |
|--------------------------------|--|--|---------------------------------------|--|
| Xizmat ko‘rsatish asosi | Halol standartlariga asoslangan | Halol standartlariga asoslangan | Halol standartlariga asoslangan | Halol standartlariga asoslangan |
| Diniy mansublik | Barcha din vakillari | Barcha din vakillari | Musulmonlar | Barcha din vakillari |
| Geografik joylashuv | Musulmon yoki musulmon bo‘lmagan davlatlar | Musulmon yoki musulmon bo‘lmagan davlatlar | Faqat musulmon davlatlar | Musulmon yoki musulmon bo‘lmagan davlatlar |
| Safar maqsadi | Islomiy tamoyilga mos safarlar | Islomiy tamoyilga mos safarlar | Bilim olish va ziyorat maqsadida | Ziyorat maqsadida |
| Sayohat obyekti | Barcha turistik obyektlar | Barcha turistik obyektlar | Ziyoratgohlar | Urush bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlar |
| Shariy mansublik | Halol va harom konsepsiyasi | Halol va harom konsepsiyasi | Islomiy tamoyil | Barcha diniy tamoyillar |

Ziyorat turizmining halol va harom tamoyili asosida xizmat ko‘rsatilishi, sayohat obyekti islomiy ziyoratgohlar ekanligini ta’kidlab, davlat darajasida ziyorat turizm faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ziyoratchi va turistlarga ko‘rsatilgan xizmatni aniq bilish “ziyosat” va “turizm” tushunchalarini huquqiy darajada ajratish muhim hisoblanadi.

Izohli va diniy lug‘atlar, ziyorat turizmga oid yozma ilmiy manbalarni umumlashtirilganda ziyorat asosan Islomiy ta’limot egalariining tashrifiga mo‘ljallanganligi, uni internatsional tilda “Ziyorat” atamasi bilan ta’riflash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Tadqiqotlardan o‘lkamizda ziyorat motivlarining paydo bo‘lishi, mazkur faoliyatga ilmiy jihatdan yondashuv zarurligi, respublikamizda ziyorat turizmini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun yetarli tadqiqot ishlari mavjud emasligi ko‘rinib turibdi. Biz ziyorat turizmni ta’riflashda motiv, maqsad, imon, muqaddas makon kabi asosiy omillarni [25] qamrab olishlikni muhim deb hisoblaymiz.

Tadqiqotlarda hududda ziyoratni turistik maqsadlarda rivojlantirishning geografik, iqtisodiy, marketing, menejment, ijtimoiy kabi ilmiy yondashuvlari taklif etilgan (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Olimlarning hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish masalalariga doir ilmiy yondashuvlari

| Ilmiy yondashuv turi | Mualliflar | Yondashuvning asosiy mazmuni |
|---------------------------------|-------------------|---|
| Ruhiy va diniy yondashuv | Surinder Bhardwaj | Islom ilmiga ko‘ra, diniy va ma’naviy sayohatlarni Haj/Umra, Rihla va Ziyara turlariga ajratgan. Islomiy ziyorat muqaddas markazlarga uzoq masofalarni bosib o‘tadigan millionlab odamlarni jalb qilishini tasdiqlagan. |

| | | |
|-----------------------------|----------------------|---|
| | UmmeSalma Mujtaba | UmmeSalma ziyorat kategoriyasi tarkibida piyoda sayohat qilishni akademik munozaralar asnosida tushuntirgan. |
| Marketing yondashuvi | Muhammad Farooq Haq | Tadqiqotda marketing nuqtai nazaridan Islomiy turizm, diniy turizm, Islomiy ma'naviy turizm va Haj hamda Umra o'rtasidagi farq baholanib, Islomiy ma'naviy turizm Islomiy turizm va Halol turizmning bir qismi, Haj va Umra, Rihla, Ziyorat esa uning sub to'plami sifatida qaraladi. Muallif Islomiy turizm faqat musulmon sayyohlar uchun emasligini, musulmonlar bilan uchrashish, ularning islom tarixi, ma'naviyati, madaniyati va merosi bilan tanishish maqsadida musulmon mamlakatlarga sayohat qilayotgan g'ayrimusulmonlar uchun ham takliflar berilishi lozimligi ta'kidlanib, nomusulmonlarning ham ishtirok etishi ham Islomiy/Ma'naviy turizm degan tushunchani olg'a surgan. |
| | Yasin Bilim | Yasin va boshqalar turizmning global ta'sirini hisobga olib turizm marketingiga islomiy jihatlarini inobatga olgan holda makro darajada yondashish zarurligini ta'kidgan. |
| Klaster yondashuvi | Zebiniso Navruz-zoda | Muqaddas joylarning ziyorat klasterbopligini ziyoratgohning muqaddaslik xususiyatini tavsiflaydigan sajdabopligi, muqaddaslik martabasi, ilmiy salohiyati, obidalarining majmualiligi, karomatligi hamda ziyoratgohni sayyorlik xususiyatini tavsiflaydigan muqaddas joylar haqidagi ma'lumotlarning keng qamrovliligi, infrastrukturasi rivojlanganligi, nufuzliligi, tarixiylik va foydalilik holati va boshqarish imkoniyatlari kabi mezonlar ishlab chiqilgan. |

O'zbekiston sharoitida eng maqbul variant klaster yondashuvi degan to'xtamga kelib, uzoq masofalarga piyoda sayohat qilish, makro darajadagi marketing yondashuvini qo'llash alohida ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar

Metafora bilan aytganda har bir sayohat ziyorat bo'lishi mumkin. Agar sayohatchi safari davomida muqaddas joylarga, ziyoratxonalariga tashrif buyursa, kimnidir ziyorat qilish maqsadida kelsa u ham turist ham ziyoratchi sanaladi. Buni turizm statistikasida aks ettirish esa ancha qiyin tus oladi. Bizning fikrimizcha, diniy turizm, ziyorat va turizm kabi atamalarning ham o'zaro bir-biriga bog'liqligini inobatga oladigan bo'lsak, ularni faqatgina sayyohning aniq nima madsadda tashrif buyurganligini aytgan holidagina uning nima maqsadda (diniy turizm, ziyorat yoki turizm) sayohat qilganligini aniqlashtirish imkoni bo'ladi.

Umuman olganda, ziyorat maqsadida sayohat qiluvchi Islom dini vakillarining muqaddas qadamjolarga tashrifini barcha tillarda va statistik ma'lumotlarda "Ziyorat turizm" deb yuritish, sayohatchilarni esa "ziyoratchi" sifatida e'tirof etilishini ta'kidlash zarur hisoblanadi.

Hududlarda ziyorat turizmni rivojlantirishda quyidagi masalalarga alohida ustuvorlik berish kerak:

- ziyorat turizm yo'nalishida aniq fakt va ilmiy asoslarga tayangan holda maqsadli tadqiqotlar olib borish;
- ziyorat turizmining iqtisodiy ta'sirini o'rganish, uning ijtimoiy va iqtisodiy foydalarini baholash uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish;

- ekologik muammolarni oldini olish va ularning barqarorligini ta'minlash asnosida aniq strategiyalar ishlab chiqish;
- ziyoratchilarning mahalliy aholiga ta'siri, madaniyatlararo aloqalar va ziyorat turizmining ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini baholash orqali ziyorat turizmining ijtimoiy va madaniy ta'sirini chuqur o'rganish.
- ziyorat turizmining samaradorligini oshirish, ziyoratchilar uchun qulaylik yaratish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish;
- ziyoratgohlarning madaniy va diniy merosini saqlash, ularni yaxshilash va taqdim etish orqali turizmni yanada rivojlantirish imkoniyati bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullah, A. A., Awang, M. D., & Abdullah, N. (2020). Islamic tourism: the characteristics, concept and principles. *KnE Social Sciences*, 196-215.
2. Abramson, D. M., & Karimov, E. E. (2007). 20. Sacred Sites, Profane Ideologies: Religious Pilgrimage and the Uzbek State. *Everyday life in Central Asia: Past and present*, 319.
3. Arjana S. R. Pilgrimage in Islam: Traditional and modern practices. – Simon and Schuster, 2017.
4. Battour, M., & Ismail, M. N. (2016). Halal tourism: Concepts, practises, challenges and future. *Tourism management perspectives*, 19, 150-154.
5. Bauman Z. From pilgrim to tourist—or a short history of identity //Questions of cultural identity. – 1996. – T. 1. – C. 18-36.
6. Bhardwaj S. Non-hajj pilgrimage in Islam: A neglected dimension of religious circulation //Journal of cultural geography. – 1998. – T. 17. – №. 2. – C. 69-87.
7. Bılım Y., Bıřkın F., Kaynak İ. H. Marketing approaches and problems of Islamic destinations //Islamic tourism: management of travel destinations. – Wallingford UK : CAB International, 2019. – C. 38-54.
8. Buxoriy, S. S. (2012). Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. *Toshkent-2015*.
9. Collins-Kreiner N. The lifecycle of concepts: the case of 'Pilgrimage Tourism' //Tourism Geographies. – 2016. – T. 18. – №. 3. – C. 322-334.
10. Durán-Sánchez A. et al. Religious tourism and pilgrimage: Bibliometric overview //Religions. – 2018. – T. 9. – №. 9. – C. 249.
11. Eade J. Pilgrimage and tourism at Lourdes, France //Annals of Tourism Research. – 1992. – T. 19. – №. 1. – C. 18-32.
12. Eliade M., Partin H. B. Crisis and renewal in history of religions //History of Religions. – 1965. – T. 5. – №. 1. – C. 1-17.
13. Graburn N. H. H. Tourism: The sacred journey. – Routledge, 2015. – C. 221-234.
14. Haq F. Islamic spiritual tourism: An innovative marketing framework //International Journal of Social Entrepreneurship and Innovation 4. – 2013. – T. 2. – №. 5. – C. 438-447.
15. MacCannell D. Staged authenticity: Arrangements of social space in tourist settings //American journal of Sociology. – 1973. – T. 79. – №. 3. – C. 589-603.
16. Muhamad, N. S. A., Sulaiman, S., Adham, K. A., & Said, M. F. (2019). Halal tourism: literature synthesis and direction for future research. *Pertanika Journal of Social Science and Humanities*.
17. Mujtaba U. S. Constructs of foot pilgrimage in Islam: the case of Arbaeen Ziyara //Islamic tourism: management of travel destinations. – Wallingford UK : cab International, 2019. – C. 214-227.
18. Navruz-zoda Z.B. Turistik hududlar negizida ziyorat klasterlarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. 08.00.17. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. –Buxoro. 2021. – 140 b.

19. Navruz-Zoda, B. N., Ibragimov, N., & Rakhmanov, A. (2019). Perspectives on the improvement of Uzbekistan as a destination for multi-confessional self-organised pilgrims. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*, 7(4), 11.
20. Navruz-Zoda, B., & Navruz-Zoda, Z. (2016). The destination marketing development of religious tourism in Uzbekistan. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*, 4(7), 3.
21. Navruz-Zoda, B., Ibragimov, N., & Rakhmanov, A. (2017). The Destination Marketing Tools For “Seven Sufi Saints of Noble Bukhara” Pilgrimage Cluster.
22. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – 672 bet.
23. Rahimi B., Eshaghi P. (ed.). Muslim pilgrimage in the modern world. – UNC Press Books, 2019.
24. S. Jo‘rayeva. Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi. Monografiya. Toshkent. “O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”. 2021. -224 b.
25. Stoddard R. Defining and classifying pilgrimages. – 1997.
26. Stone, P. (2013). Dark tourism scholarship: A critical review. *International Journal of Culture, Tourism and Hospitality Research*, 7(3), 307-318.
27. Turner V. W., Turner E. L. B. Image and pilgrimage in Christian culture. – Columbia University Press, 2011.
28. Yo‘ldoshev, N. (1997). Buxoro avliyolarining tarixi. Buxoro.
29. Бабаджанов, Б. (2001). Возрождение деятельности суфийских групп в Узбекистане. *Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования)*. СПб.
30. Сухарева, О. А. (1966). *Бухара, XIX-начало XX в: Позднефеодальный город и его население* (Vol. 1). Наука; Глав. ред восточной лит-ры.
31. Худояров, А. А. (2022). Зиёрат туризми фаолиятини қўллаб-қувватловчи ва тартибга солувчи институтларнинг меърий-ҳуқуқий ва маъмурий-ташкилий жиҳатлари. *Журнал Инновации в Экономике*, 5(4).